

## TA'LIM MUASSASALARIDA BILIM JARAYONLARINI BOSHQARISHDA KOGNITIV MENEJMENT YANGI MODELINI SIFATIDA QO'LLASH TEXNOLOGIYALARI

**Sadinova Marjona Akmal qizi,**  
Toshkent shahridagi Puchon universiteti  
Ta'lim menejmenti yo'nalishi 1-boshqich magistranti

**Ilmiy rahbar: Umarova Navbahor Shokirovna,**  
O'zMPU kafedra mudiri, psixologiya fanlar doktori, professor

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18932393>

**Annotatsiya.** Maqolada tezida ta'lim muassasalarida bilim jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarishda kognitiv menejmentni yangi model sifatida qo'llash texnologiyalari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida axborot oqimining ortishi, innovatsion yondashuvlarning kengayishi hamda o'quvchilarning individual kognitiv xususiyatlarini hisobga olish zarurati boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, kognitiv menejment bilimlarni yaratish, saqlash, qayta ishlash va uzatish jarayonlarini tizimli boshqarish vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda kognitiv menejmentning nazariy asoslari, uning ta'lim muassasalaridagi amaliy ahamiyati hamda pedagogik jarayonni boshqarishda raqamli texnologiyalar, refleksiv tahlil, intellektual monitoring va ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, o'qituvchilar va rahbarlarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish orqali ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llari asoslab beriladi. I.P. Podlasiyning pedagogik jarayon, uning tarkibiy qismlari va boshqaruv funksiyalariga doir ilmiy qarashlari asosida ta'lim tizimida bilimlarni yaratish, qayta ishlash va qo'llash mexanizmlari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** kognitiv menejment, pedagogik jarayon, bilimlarni boshqarish, ta'lim texnologiyalari, innovatsion boshqaruv, kreativ fikrlash.

**Аннотация.** В статье анализируются технологии применения когнитивного менеджмента как новой модели эффективной организации и управления процессами знаний в образовательных учреждениях. В условиях современной системы образования увеличение информационных потоков, расширение инновационных подходов и необходимость учета индивидуальных когнитивных особенностей обучающихся требуют совершенствования управленческих механизмов. В этой связи когнитивный менеджмент рассматривается как системный инструмент управления процессами создания, хранения, обработки и передачи знаний.

В исследовании раскрываются теоретические основы когнитивного менеджмента, его практическая значимость в образовательных учреждениях, а также возможности использования цифровых технологий, рефлексивного анализа, интеллектуального мониторинга и механизмов принятия решений на основе данных в управлении педагогическим процессом. Кроме того, обосновываются пути повышения качества образования и эффективности управления посредством развития когнитивных компетенций преподавателей и руководителей. На основе научных взглядов И. П. Подласого о педагогическом процессе, его структурных компонентах и управленческих функциях раскрываются механизмы создания, переработки и применения знаний в системе образования.

**Ключевые слова:** когнитивный менеджмент, педагогический процесс, управление знаниями, образовательные технологии, инновационное управление, креативное мышление.

**Abstract.** The article analyzes technologies for applying cognitive management as a new model for the effective organization and management of knowledge processes in educational institutions. In the modern education system, the increasing flow of information, the expansion of innovative approaches,

and the need to consider the individual cognitive characteristics of learners require the improvement of management mechanisms. From this perspective, cognitive management is considered a systematic tool for managing the processes of knowledge creation, storage, processing, and transfer.

The study highlights the theoretical foundations of cognitive management, its practical significance in educational institutions, and the possibilities of using digital technologies, reflective analysis, intellectual monitoring, and data-driven decision-making mechanisms in managing the pedagogical process. In addition, ways of improving the quality of education and management efficiency through the development of cognitive competencies of teachers and administrators are substantiated. Based on the scientific views of I. P. Podlasiy on the pedagogical process, its structural components, and management functions, the mechanisms of knowledge creation, processing, and application in the education system are revealed.

**Keywords:** cognitive management, pedagogical process, knowledge management, educational technologies, innovative management, creative thinking.

**Kirish.** Jahon ta'lim tizimida bugungi kunda talabalarga zamonaviy dunyo standartlari asosida bilim berish, ularning barcha yo'nalishlarda ijodiy faolligini qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Ta'lim jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki yangi ilmiy-amaliy g'oyalarni ilgari sura oladigan, turli vaziyatlarda muammolarga mustaqil va samarali yechim topa oladigan ijodkor shaxsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, PISA xalqaro tadqiqotlarida 2021-yildan boshlab ta'lim sifatini baholash mezonlari tarkibida "ijodiy tafakkur" alohida komponent sifatida ajratib ko'rsatildi. Bu esa ijodiy fikrlash ko'nikmalari zamonaviy ta'lim natijalarining muhim ko'rsatkichi sifatida e'tirof etilayotganini anglatadi. Ijodiy va nostandart tafakkur tarzi bugungi kunda malakali mutaxassisning kasbiy kompetentligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida qaralmoqda.

Shu bois, shaxsda ijodiy tafakkurni rivojlantirish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Jahon ta'lim va ilmiy-amaliy markazlarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Zamonaviy ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarga aniq va samarali yechim topa olish kompetensiyasini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilgan.

XXI asr ta'lim tizimi global axborot oqimi, raqamli transformatsiya va intellektual kapitalning ortib borishi sharoitida faoliyat yuritmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayoni oddiy bilim uzatish mexanizmi sifatida emas, balki bilimni yaratish, qayta ishlash, tizimlashtirish va amaliyotga samarali tatbiq etish jarayoni sifatida talqin etilmoqda. Shu bois ta'lim muassasalarida bilim jarayonlarini boshqarish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Pedagogik jarayonning mohiyati va uning boshqaruv xususiyatlari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, I. P. Podlasiy pedagogik jarayonni maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va o'zaro bog'langan komponentlardan tashkil topgan murakkab

ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida izohlaydi. Uning qarashlariga ko'ra, pedagogik jarayon o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan bo'lib, unda boshqaruv elementi muhim o'rin egallaydi. Boshqaruvsiz pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlash mushkul.

Zamonaviy ta'lim sharoitida boshqaruv tushunchasi faqat tashkiliy nazorat bilan cheklanib qolmaydi. U o'quvchilarning fikrlash jarayonlari, bilish faoliyati, motivatsiyasi va refleksiyasini ham qamrab oladi. Aynan shu jihat kognitiv menejment konsepsiyasining ahamiyatini oshiradi. Kognitiv menejment bilimlarni hosil qilish, ularni saqlash, almashish va qo'llash jarayonlarini ongli ravishda tashkil etishga qaratilgan boshqaruv modelidir.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqotda pedagogik jarayonni boshqarish nazariyasini kognitiv menejment modeli bilan uyg'unlashtirish maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Har bir metod mavzuning muayyan jihatini ochib berishga xizmat qildi va o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llanildi.

Birinchi, **nazariy tahlil metodi** qo'llanildi. Ushbu metod orqali I. P. Podlasiy ning pedagogik jarayon haqidagi ilmiy qarashlari o'rganildi va umumlashtirildi. Nazariy tahlil jarayonida pedagogik jarayonning mohiyati, uning tarkibiy qismlari, boshqaruv funksiyalari hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlari chuqur tahlil qilindi. Bu metod mavzuning nazariy asosini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, pedagogik jarayonni boshqariladigan tizim sifatida talqin qilish kognitiv menejment modelini ishlab chiqish uchun metodologik poydevor vazifasini bajardi.

Ikkinchi, **tizimli yondashuvdan** foydalanildi. Tizimli yondashuv pedagogik jarayonni o'zaro bog'liq elementlar majmui sifatida ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv asosida maqsad, mazmun, metod, vosita va natija komponentlari o'zaro integratsiyalashgan holda tahlil qilindi. Kognitiv menejment modeli ham aynan tizimlilikka asoslanganligi sababli, ushbu metod bilim jarayonlarini yagona boshqaruv sikliga birlashtirish imkonini berdi. Natijada ta'lim muassasasida bilimlarni yaratish, saqlash, almashish va amaliyotga tatbiq etish bosqichlari yaxlit mexanizm sifatida ko'rib chiqildi.

Uchinchi, **taqqoslash metodi** qo'llanildi. Bu metod yordamida an'anaviy pedagogik boshqaruv modeli bilan kognitiv menejment modeli o'rtasidagi farqlar aniqlashtirildi. Taqqoslash jarayonida boshqaruvning maqsadga yo'naltirilganlik darajasi, o'quvchi faolligi, refleksiya jarayonlari va bilim almashinuvi mexanizmlari solishtirildi. Mazkur metod mavzu uchun shuni ko'rsatdiki, kognitiv menejment an'anaviy nazoratga asoslangan boshqaruvdan farqli ravishda fikrlash jarayonlarini boshqarishga yo'naltirilgan.

To'rtinchi, **modellashtirish metodidan** foydalanildi. Ushbu metod orqali pedagogik jarayon komponentlari kognitiv menejment modeli asosida qayta tuzildi va bilim jarayonlarini boshqarishning konseptual modeli ishlab chiqildi. Modelda quyidagi bosqichlar belgilandi: bilimni qabul qilish, qayta ishlash, tizimlashtirish, qo'llash va refleksiya. Modellashtirish mavzu uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim

muassasalarida qo'llash mumkin bo'lgan boshqaruv mexanizmini ishlab chiqishga xizmat qildi.

Podlasiyning fikriga ko'ra, pedagogik jarayon maqsad, mazmun, metod va natija kabi tarkibiy qismlardan iborat. Ushbu komponentlar tadqiqotda kognitiv menejment modeli bilan uyg'unlashtirildi. Masalan, "maqsad" – bilim jarayonlarini ongli boshqarish strategiyasini belgilash; "mazmun" – bilimlar oqimini tashkil etish; "metod va vositalar" – interaktiv va raqamli texnologiyalarni qo'llash; "natija" esa o'quvchilarning kognitiv va kreativ kompetensiyalarining shakllanishi sifatida talqin qilindi.

**Natijalar tahlili.** Tadqiqot natijasida pedagogik jarayon boshqaruv jarayoni sifatida ko'rilganda, u kognitiv tizim xususiyatiga ega ekanligi aniqlanishi mumkin. Bu degani, ta'lim jarayoni nafaqat tashkiliy nazorat va metodik boshqaruvni, balki o'quvchilarning fikrlash, tahlil va ijodiy faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Kognitiv menejment modeli bilim jarayonlarini ongli ravishda tashkil etishga imkon beradi va u uch asosiy bosqichda amalga oshiriladi: bilimni yaratish, bilimni tizimlashtirish va bilimni amaliyotga tatbiq etish.

Bilimni yaratish bosqichida o'quvchilar axborotni qabul qiladi, uni tahlil qiladi va turli manbalar asosida qayta ishlaydi. Bu jarayon ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, tafakkurini chuqurlashtiradi va yangi bilimlarni o'zlashtirishga tayyorlaydi. Bilimni tizimlashtirish bosqichi o'quvchilarga olingan ma'lumotlarni tizimli tarzda tartibga solish, ularni umumiy bilimlar kontekstiga joylashtirish imkonini beradi. Ushbu jarayon kognitiv menejmentning eng muhim elementi bo'lib, o'quvchilarning analitik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bilimni amaliyotga tatbiq etish bosqichi esa o'quvchilarda kreativ yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular olingan bilimlarni real vaziyatlarda qo'llash, voqea-hodisalarga ijodiy yechimlar ishlab chiqish orqali o'zining mas'uliyatlilik va faolligini oshiradi. Shu bilan birga, ta'lim sifati sezilarli darajada oshadi, o'quvchilar o'z-o'zini baholash, refleksiya qilish va o'z bilimini doimiy takomillashtirishga o'rganadi.

Kognitiv menejment modeli asosida ta'lim jarayonida quyidagi texnologiyalar samarali deb topildi: interaktiv o'qitish metodlari, raqamli ta'lim platformalari, reflektiv baholash tizimi va individual rivojlanish monitoringi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatini oshiradi, ularning mustaqil va faol ishtirokini rag'batlantiradi.

Kreativ fikrlash o'quvchilarda tizimli pedagogik jarayonlarda shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Ta'lim oluvchilar narsa-buyumlar, voqea-hodisalarning tabiati bilan tanishib, ularga ijodiy yondashish usullarini egallaydilar. S.L. Rubinshteyn ta'biri bilan aytganda, ta'lim oluvchilarning tahliliy faoliyati ularning kreativ fikrlashining asosiy poydevorini tashkil etadi. Shu jarayonda shakllangan kreativ fikrlash faoliyati o'quvchilarni muvaffaqiyatga yetaklovchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

**Muhokama.** Podlasiyning pedagogik jarayonni boshqaruv tizimi sifatida talqin qilishi kognitiv menejment modelining nazariy asosini tashkil etadi. U pedagogik

jarayonni tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va boshqariladigan faoliyat sifatida ko'radi, bu esa bilim jarayonlarini ongli ravishda boshqarish imkonini beradi. An'anaviy boshqaruv modeli ko'proq tartib-intizom va nazoratga qaratilgan bo'lsa, kognitiv menejment modelida o'quvchilarning fikrlash jarayonlari markaziy o'rin egallaydi. Kognitiv menejment nafaqat bilim oqimini tizimlashtiradi, balki o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Shu bilan birga, pedagogik jarayonda ijodiy muhit yaratish va o'quvchilarni faol ishtirok etishga rag'batlantirish imkonini beradi. Ushbu model ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida samarali, chunki shu davrda tafakkur va kreativ fikrlash jarayonlari faol rivojlanadi.

Kognitiv menejment orqali o'quvchilar bilimlarni faqat qabul qilish bilan cheklanmay, ularni tahlil qiladi, tartibga soladi va amaliyotga tatbiq etadi. Bu esa pedagogik jarayonni yanada dinamik va interaktiv qiladi.

**Xulosa.** Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, pedagogik jarayonni boshqaruv jarayoni sifatida ko'rish kognitiv menejment modelining nazariy va amaliy asosini tashkil etadi. Ushbu model bilim jarayonlarini ongli boshqarish, o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash hamda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi. Bilim yaratish, tizimlashtirish va amaliyotga tatbiq etish bosqichlari orqali ta'lim jarayoni interaktiv va samarali bo'ladi. Interaktiv metodlar, raqamli platformalar va refleksiv baholash kognitiv menejmentni amaliyotga joriy etishda muhim vosita hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi (PISA 2021 Creative Thinking Framework (Third Draft), [www.oecd.org/pisa/publications/](http://www.oecd.org/pisa/publications/))// Iqtisod fanlari doktori U.Sharifxodjayev hamda D.Norboevaning umumiy tahriri ostida/ Toshkent. Navro'z, 2020. -76 bet.
2. Подласый, И. П. Педагогика начальной школы: учеб. пособие. – Москва: Владос, 2008. – 463 с.
3. Senge, P. M. The Fifth Discipline: The Art and Practice of the Learning Organization. – New York: Doubleday, 2006. – 445 p.
4. Creswell, J. W. Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2014. – 273 p.
5. Yin, R. K. Case Study Research and Applications: Design and Methods. – Los Angeles: Sage Publications, 2018. – 352 p.
6. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Рубинштейн,\\_Сергей\\_Леонидович](https://ru.wikipedia.org/wiki/Рубинштейн,_Сергей_Леонидович).
7. Nonaka, I., Takeuchi, H. The Knowledge-Creating Company. – New York: Oxford University Press, 1995. – 284 p.